

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI



Научный вестник Бухарского государственного университета
Scientific reports of Bukhara State University

3/2025

E-ISSN 2181-1466



9 772181 146004

ISSN 2181-6875



9 772181 687004



@buxdu_uz



@buxdu1



@buxdu1



www.buxdu.uz

3/2025

MUNDARIJA *** СОДЕРЖАНИЕ *** CONTENTS		
TILSHUNOSLIK *** LINGUISTICS *** ЯЗЫКОЗНАНИЕ		
Zikrillayev G'.N., Ro'ziyev Y.B., Safarov F.S.	Istiqlol va tilshunoslik metodologiyasi	3
Yuldasheva D.N., Hojiyeva S.H.	Zulfiya Mo'minova she'riyatida milliy-madaniy xususiyatlarning fonopoetik ifodasi	19
Qurbonova Z.A.	Function of color lexical words, their semantic meaning and translation (in the example of the concepts "white" and "black")	25
Safarova M.Z.	Buxoro toponimiyasida miqdor ifodalovchi so'z asosli etnotoponimlarning o'rni	30
Sulaymonova M.Sh.	Metaforaning jahon adabiyotida o'rganilish tarixi	35
Рузиева М.Х.	Проявление эпитета в виде многозначных прилагательных	41
Джафарова Д.И.	Вербал ва новербал алоқа муносабатларининг таржима жараёнида таржима қилиш муаммолари	46
Toshtemirova S.	Colour naming: semantics of the colour red in english	51
Tojiyeva K.N.	Koreys tilida (Janubiy Koreya) iqtisodiy-moliyaviy leksik birliklarning genetik tahlili	55
To'rayeva U.E.	Tilning madaniy normalar, qadriyatlar va an'analarni uzatishdagi roli	61
Soibova G.B.	Lingvokulturologiya tilshunoslikning bo'limi sifatida	66
Sobirova N.G'.	Qoidalarga asoslangan imlo tekshirish usullari	70
Bozorov Z.A.	“Sog'lik” konsepti asosida shakllangan maqollar tadqiqi	76
Davronova Z.B.	Modeling language activity as a scientific text tool	80
Ziyoyeva D.A.	Paradigm in linguistics: a scientific overview	85
Yusupova D.Y.	Adabiy manbalarda qimmatbaho tosh nomlari	89
Ermetova J.I., Xo'sinova Z.X.	The linguacultural exploration of metaphors and revealing their cultural values through human character expressions	93
Xamidova M.H.	Fransuz va o'zbek tillarida meteonimlarning lingvomadaniy xususiyatlari	97
Usmonova U.B.	Ingliz va o'zbek tillaridagi publitsistik matnlarda nutqiy aktlarning faollashuvi	103
Usmonov A.Q.	Muloqot jarayonida kulgi uyg'otuvchi vositalar va birliklar	107
Ubaydullayeva M.O'.	Frazologik birliklarning ma'no, grammatik va funksional jihatlar	111
Asadov T.H.	Ot va sifat turkumidagi oraliq so'zlarning ayrim funksional-semantik tabiati xususida	118

Satira – kulgili mubolag'a yoki tanqidiy tasvir orqali jamiyatdagi yoki siyosatdagi norozilik, kamchiliklar yoki zaif tomonlarni tanqid qilishga qaratilgan. Satira ijtimoiy nuqsonlarni, jamiyatdagi muammolarni, kishilardagi kamchiliklarni yoritib beradi.

Parodiya - taniqli asarlarni, taniqli shaxslarni yoki uslublarini hazil bilan buzish yoki bo'rttirish maqsadida taqlid qilinadi.

Ayonki, suhbat barcha til darajalarida muhim xususiyatlarga ega, shuning uchun u ko'pincha maxsus til tizimi sifatida qaraladi. Og'zaki tilning lisoniy xususiyatlarida nutq xatoliklaridan qochish kerak deb o'ylash noto'g'ri. Muvaffaqiyatli og'zaki muloqot – bu muloqot tashabbuskorlarining kommunikativ maqsadini amalga oshirish va suhbatdoshlarning roziligi.

Pragmalingvistik tahlilda shaxs masalasi markaziy o'rinni egallar ekan, nutq jarayonida ishtirok etuvchi so'zlovchi hamda tinglovchi shaxs pragmatik komponentlar qatoriga kiradi. Haqiqatan ham muloqotning ikki tomonlama ekanligi kamida ikki kommunikaning mavjudligini talab qiladi: adresant, adresat va ba'zi hollarda kuzatuvchi.[8-C.52]

Til vositalaridan san'atkorona foydalanishgina muloqot ta'sirchanligini ta'minlaydi, ijodkor mahoratini belgilaydi. So'nggi vaqtlarda kundalik ijtimoiy tarmoqlar va matbuot sahifalarida e'lon qilinayotgan ko'pgina kichik hajmdagi maqolalardan tortib, yirik yozuvchilar ijodini monografik nuqtayi nazardan yorituvchi va ayrim janrlarning xususiyatlarini, taraqqiyot tarixini o'rganishga bag'ishlangan ilmiy ishlarda ham matn tilini o'rganishga alohida e'tibor berilayotganligi va ijodkor mahoratining tarkibiy qismi sifatida o'rganilayotganligi bejiz emas.

Shahar tashqarisida 100 km soat tezlikda shoshib ketayotgan haydovchining ko'zi yo'l chetidagi "Oq yo'l" - 50" degan yozuvga tushibdi. Radar bor ekan-da, deb o'ylagan haydovchi va darhol tezlikni 50 km soatga tushiribdi. Yarim soat yuribdi. Yo'l chetida yana "Oq yo'l" - 20" degan yozuv chiqibdi. Aniq YPH xodimlari turgan bo'lsa kerak, - debdi o'ziga-o'zi va 20 km soat tezlikda yura boshlabdi. Yana yarim soat shu past tezlikda haydab ketaveribdi. Bir vaqt "Oq yo'l" - 5" degan yozuv ko'ribdi. Aniq reyder bo'layotgandir, - deb 5 km tezlikda haydabdi bechora. Yurib-yurib qarasa, 5 km dan keyin oldidan "Oq yo'l" degan kafe chiqibdi. (<https://latifa.uz/pages/4>)

Xulosa qilib aytganda, hajviy matnlarda kulgi qo'zgatuvchi vosita va birliklar sifatida paralingvistik vositalar (intonatsiya, ohang, tana harakati va mimikalar), so'zning ko'chma ma'noda ishlatilishi (metafora, ironiya) tag ma'no (kinoya, istehzo, yashirin ma'no orqali kulgi uyg'otish) kabilarni sanash mumkin. Bu vosita va birliklar hajviy matnlarning ta'sirchanligini oshirishga va o'quvchida kulgi uyg'otishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR:

1. Нурмонов, А., Йўлдошев Б. Тилишунослик ва табиий фанлар. – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б. 63.
2. Мулоқот психологияси. – Тошкент, 2003. – Б. 4.
3. Yo'ldoshev M., Muhamedova S., Saparniyazova M. Matn lingvistikasi. – Toshkent. 2020. – B. 99.
4. Тоирова Г. Нутқий мулоқот ситуатив прагматик система сифатида. Филол. фанлари номзоди... дис. автореф. – Тошкент, 2011. – Б. 11.
5. Сафаров Ш. Прагматика. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2008. – Б. 184
6. Тоирова Г. Кўрсатилган ўқув лугат. – Тошкент, Академнашр, 2016. – Б. 30.
7. <https://jainkwellpublishing.com/index.php/conferences/article/view/882/881>
8. Азнаурова Э. Прагматика художественного слова. – Ташкент: Фан, 1988. – С. 52.

FRAZOLOGIK BIRLIKLARNING MA'NO, GRAMMATIK VA FUNKSIONAL JIHATLARI

Ubaydullayeva Muattar O'rinbekovna,
Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi
muattarubaydullayeva39@gmail.com
m.u.ubaydullayeva@buxdu.uz

Annotatsiya. Frazeologizm leksik jihatdan so'zlarning bo'linmaydigan birikmasi. Frazeologizmlar o'ziga xos morfologik va sintaktik tuzilishga ega. Frazeologizmlar tarkibidagi so'zlar grammatik va semantik jihatdan bir-biri bilan uzviy bog'liq, bir butun ma'no anglatadi. Ularning tarkibiy qismidan biror komponentni chiqarib tashlash mumkin emas. Frazeologizmlar ko'chma ma'nolarda, obrazli ifodalarda qo'llanadi. Ular tarixiy qo'llanish me'yorlariga, usullariga ega bo'lib, ma'nolari muayyan nutqiy jarayonda oydinlashadi. Frazeologizm to'liq yoki qisman ko'chma ma'noga ega bo'lgan turg'un so'z birikmasidir. Frazeologizmlar yoki idiomalar til lug'atining eng rango-rang va ifodali qismi hisoblanadi. Frazeologizmlar so'z birikmasi shaklini yo'qotmagan holda bitta so'z bitta leksema bo'lishga intilayotgan leksikolizatsiyalashgan so'z birikmasidir. Frazeologizmlar birdan ortiq so'zdan tashkil topishi bilan so'z birikmasi yoki gap tipida bo'lsa-da, ammo u nutq birligi bo'lgan bu birliklardan tamoman farqlanadi va lug'aviy birlik sifatida ko'p jihatdan so'zlarga yaqin turadi, so'zlarga xos bo'lgan juda ko'p xususiyatlar frazeologizmlarga xos.

Kalit so'zlar: frazeologizm, leksema, komponent, nazariya, birikma, tip, stilistika, tilshunoslik, fraza, sintaksis.

СЕМАНТИЧЕСКИЕ, ГРАММАТИЧЕСКИЕ И ФУНКЦИОНАЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ
ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ

Аннотация. Фразеологизм – это лексически неделимое сочетание слов. Фразеологизмы имеют свою морфологическую и синтаксическую структуру. Слова во фразеологизмах грамматически и семантически связаны друг с другом и имеют единое значение. Исключить из их состава какой-либо компонент невозможно. Фразеологизмы употребляются в зрительных значениях и образных выражениях. Они имеют исторические нормы и способы употребления, а их значение уточняется в конкретном речевом процессе. Фразеологизм – устойчивое словосочетание, имеющее полностью или частично переносное значение. Фразеологизмы или идиомы – самая красочная и выразительная часть словаря языка. Фразеологизмы – это лексикализованные словосочетания, в которых одно слово стремится быть одной лексемой, не теряя при этом формы словосочетания. Фразеологизмы имеют форму словосочетания или предложения, так как состоят более чем из одного слова, но совершенно отличны от этих единиц, которые являются речевыми единицами, и как лексическая единица во многом близки к словам, к слова. Для фразеологизмов характерно множество характерных особенностей.

Ключевые слова: фразеологизм, лексема, компонент, теория, сочетание, тип, стилистика, лингвистика, словосочетание, синтаксис.

SEMANTIC, GRAMMATICAL, AND FUNCTIONAL FEATURES OF PHRASEOLOGICAL
UNITS

Abstract. Phraseologism is a lexically indivisible combination of words. Phraseologisms have their own morphological and syntactic structure. The words in the phraseological units are grammatically and semantically related to each other and have a single meaning. It is not possible to exclude any component from their composition. Phraseologisms are used in visual meanings and figurative expressions. They have historical norms and methods of use, and their meaning is clarified in a specific speech process. Phraseologism is a stable word combination that has a fully or partially figurative meaning. Phraseologisms or idioms are the most colorful and expressive part of the language dictionary. Phraseologisms are lexicalized word combinations in which one word strives to be one lexeme without losing the form of the word combination. Although phraseologisms are composed of more than one word and are of the type of phrase or sentence, they are completely different from these units, which are speech units, and as a lexical unit, they are in many ways close to words, and many of the features characteristic of words are characteristic of phraseologisms.

Keywords: *phraseologism, lexeme, component, theory, combination, type, stylistics, linguistics, phrase, syntax.*

Kirish. Frazeologiya xalqlarning jonli va ajoyib urf-odatlarini, anʼanalari va ertaklaridan namunalarni jamlagan rasmlar koʻrgazmasiga oʻxshaydi. Frazeologiya lugʻatlarning nafaqat eng rang-barang, balki eng demokratik qatlami hamdir va bu qatlam asosan “jonli” nutq vositasida boyiydi. Frazeologiya dastlab adabiyotshunoslikda paydo boʻlgan. Maʼlum bir asarni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilganda turgʻun soʻzlar bogʻlanmasini aynan tarjima qilish mumkin boʻlmay qolgan. Bunda oʻsha tillarda mavjud boʻlgan frazeologizmlar oʻrganila boshlangan. Frazeologiya atamasi dunyo filologiyasida 1558-yilda ingliz adabiyotshunos olimi Neandr tomonidan birinchi marotaba qoʻllanilgan. U badiiy asarlarni tarjima qilgan ekan, shu atamani ishlatishga majbur boʻlgan. Frazeologik materiallarning koʻpgina qismi lugʻat va boshqa adabiyotlarda mujassamlashtirilgan boʻlsa-da, Gʻarbiy Yevropa va Amerikaning tilshunoslikka oid adabiyotlarda frazeologiya nazariyasiga oid ilmiy ishlar ham uchraydi. Yaqin davrgacha ingliz frazeologiyasi masalalari grammatika, stilistika, leksikografiya va til tarixi doirasida oʻrganib kelingan. Barcha tillarda frazeologiya leksikologiyani bir boʻlagi sifatida oʻrganilardi. Tilshunoslikning rivojlanishi jarayonida frazeologiya tilshunoslikning mustaqil sohasi sifatida qabul qilindi va oʻrganilib kelinmoqda. Shuni taʼkidlab oʻtish lozimki, ingliz frazeologiyasini oʻrganish boʻyicha Rossiya va Yevropaning boshqa qator mamlakatlari tilshunoslari koʻpgina ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishdi. Anchagina ijobiy natijalarga erishildi. Fransuz tilshunosi Sharl Balli frazeologiya atamasini fanga kiritgan boʻlsa-da, bu atama Amerika va Gʻarbiy Yevropa tilshunoslarining ishlarida oʻz aksini topgan. Balli frazeologiyani stilistika tarkibiga kiritadi. Frazeologiyani tilshunoslikning mustaqil boʻlimi sifatida oʻrganish masalasi atoqli rus tilshunosi Y.D.Polivanov tomonidan ilgari surildi. Uning taʼkidlashicha, leksika alohida soʻzlarning maʼnosini, morfologiya soʻzlarning shaklini, sintaksis esa soʻz birikmalarining shaklini oʻrganadi. Uning fikricha, ana shu til sohalari barobarida maʼlum bir soʻz birikmalarining maʼnosini oʻrganuvchi alohida sohaga ham ehtiyoj seziladi.[1,53]Y.D.Polivanov frazeologiyani tilshunoslikda mustahkam oʻrin egallashiga ishonchi komil edi va shunday boʻldi ham. Frazeologiyani tilshunoslikning mustahkam sohasi sifatida oʻrganish masalasi rus olimi V.V.Vinogradov tomonidan ilgari surilgan. Vinogradovning buyuk xizmati shundaki, u frazeologik birikmalarni semantik jihatdan guruhlariga ajratdi. Ammo uning xizmatlariga qaramay, frazeologiya leksikologiyani bir boʻlimi sifatida qolaverdi, chunki frazeologiya tilshunoslikning mustaqil boʻlimi boʻla olishini isbotlovchi asosiy tushunchalar ishlab chiqilmagan edi. Shunday qilib, frazeologiyani tilshunoslikning bir boʻlimi sifatida oʻrganish davom etdi. Y.D.Polivanov va V.V.Vinogradovdan soʻng birinchi boʻlib frazeologiyani tilshunoslikning mustaqil boʻlimi sifatida oʻrganish masalasini ilgari surgan olim B.A.Larin edi. U frazeologiya sohasida yetarlicha ilmiy ishlar qilinmaganini taʼkidlab oʻtdi.

Asosiy qism: Кунин А.В. “Курс фразеологии современного английского языка”. – М.: 1986.- B.187. A.V.Kuninning fikricha, frazeologiya leksikologiya boʻlimi doirasidan chiqqan, uning koʻlami va nufuzi ancha ortdi. Shunday qilib, hozirgi koʻpgina zamonaviy tillarda frazeologiya tilshunoslikning alohida boʻlimi sifatida oʻrganilmoqda. Frazeologiya sohasida koʻplab bir-biriga teskari fikrlar bildirilgan boʻlsa-da, ilmiy ishlar qilindi. N.N.Amosova, A.V.Kunin, B.A.Larin, V.A.Arxaŋgelskiy, V.V.Vinogradov, A.U.Smirmitskiy, S.S.Gorelik, I.A.Melchuk, I.I.Rezvin kabi tilshunoslarning bu sohaga qoʻshgan hissalarini buyukdir. Frazeologiya tilshunoslikning umumiy sistemasiga kiruvchi mikrosistema hisoblanadi. Tilshunos olim V.A.Arxaŋgelskiy frazeologiya sistemasining xususiyatlarini shunday tavsiflaydi: “Frazeologik sistema oʻzida oʻtmish merosini, qadriyatlarini aks ettiradi, u avloddan avlodga oʻtadi. Sistemani tashkil qiluvchi frazeologik birikmalarning koʻpligi, til va nutqning boyib borishi – bu omilga asosiy sababdir”[2,59]. Frazeologik sistemani frazeologik birliklar komponentlari oʻrtasidagi munosabatlar tashkil etadi. Shunday qilib, frazeologik mikrosistema ikkita bir-biriga bogʻliq sistemadan tashkil topgan oʻzaro munosabatlar sistemasini va tuzilish sistemasidir. Frazeologiyani tadqiqot obyekti tilning frazeologik mikrosistemasini va uning qonuniyatlaridir. Lekin frazeologiyaga oid koʻpgina savollar, masalalar oʻz yechimini kutmoqda, frazeologik birliklarga oid qonuniyatlar toʻlaligicha ochilmagan, frazeologik daraja va frazeologik maʼno yetarlicha asoslanmagan, qoʻshma soʻz va frazeologik birlik oʻrtasidagi chegara hamma vaqt ham aniq emas, frazeologiya va frazeomatika aniq belgilanmagan. Oʻzbek tilshunosligida frazeologizmlarni oʻrganish 1950-yillarda boshlandi. Bu sohada Y.Pinxasov, M.Hasanov, I.Qoʻchqortoyev, Sh.Raxmatullayev, A.Mamatov kabi taniqli tilshunoslar ilmiy tadqiqot olib bordilar. Oʻzbek frazeologiyasi sohasida tilshunos olim Sh.Raxmatullayev qoʻshgan hissasi ulkandir. Bu olim oʻzbek iboralarining grammatik xususiyatlarini keng tadqiq qildi. U oʻzbek frazeologik birliklarini lugʻaviy birlik sifatida oʻrganishni boshlab berdi.uning ilmiy tadqiqotlari va bu ilmiy faoliyatning mevasi boʻlgan “Frazeologik birliklarning asosiy maʼno turlari” (1955), “Oʻzbek frazeologiyasining baʼzi masalalari” (1966), “Nutqimiz koʻrki” (1970), “Oʻzbek tilining izohli frazeologik lugʻati” (1978) kabi qator kitoblari oʻzbek tilshunosligida muhim nazariy va amaliy ahamiyatga

ega. O'zbek frazeologiyasining xuddi ingliz frazeologiyasi kabi hajmi, o'rganish obyekti masalasi atrofida hali ham munozara bo'lib turganiga qaramay olimlar frazeologik boyliklarni turli nuqtalardan yondashib o'rganishni davom ettirmoqda. Ikki yoki undan ortiq so'zdan tarkib topgan va yaxlit bir ma'no ifodalaydigan, grammatik va semantik jihatdan bo'linmaydigan va odatda so'z ekvivalenti bo'lgan til birligi – frazeologik birlik yoki frazeologizm deyiladi.

Ingliz tilidagi ba'zi frazeologizmlar:

□ Red tape, in a brown study, Hobson's choice, to kick the bucket, to leave somebody in lurch, to set one's cap at somebody, to stand to one's guns, to catch at a straw.

O'zbek tilidagi ba'zi frazeologizmlar:

□ Qo'y og'zidan cho'p olmagan, og'zi qulog'ida, sirkasi suv ko'tarmaydi, o'takasi yorilmoq, sichqonning ini ming tanga, kovushini tog'rilab qo'ymoq, do'ppisi yarimta, yuragiga qil sig'maydi [3,78].

Tadqiqot obyekti va qo'llanilgan metodlar: Frazeologizm leksik jihatdan so'zlarning bo'linmaydigan birikmasi. Frazeologizmlar o'ziga xos morfologik va sintaktik tuzilishga ega. Frazeologizmlar tarkibidagi so'zlar grammatik va semantik jihatdan bir-biri bilan uzviy bog'liq, bir butun ma'no anglatadi. Ularning tarkibiy qismidan biror komponentni chiqarib tashlash mumkin emas. Frazeologizmlar ko'chma ma'nolarda, obrazli ifodalarda qo'llanadi. Ular tarixiy qo'llanish me'yorlariga, usullariga ega bo'lib, ma'nolari muayyan nutqiy jarayonda oydinlashadi. Frazeologizm to'liq yoki qisman ko'chma ma'noga ega bo'lgan turg'un so'z birikmasidir. Frazeologizmlar yoki idiomalar til lug'atining eng rango-rang va ifodali qismi hisoblanadi. Frazeologizmlar so'z birikmasi shaklini yo'qotmagan holda bitta so'z bitta leksema bo'lishga intilayotgan leksikolizatsiyalashgan so'z birikmasidir. Frazeologizmlar birdan ortiq so'zdan tashkil topishi bilan so'z birikmasi yoki gap tipida bo'lsada, ammo u nutq birligi bo'lgan bu birliklardan tamoman farqlanadi va lug'aviy birlik sifatida ko'p jihatdan so'zlarga yaqin turadi, so'zlarga xos bo'lgan juda ko'p xususiyatlar frazeologizmlarga xos. Frazeologizmlar ham xuddi so'zlar kabi shakl va ma'no birligiga ega. So'zning shakily tomonini tovushlar hosil qilsa, frazeologizmlar shakily tomonini so'zlar hosil etadi. Frazeologizmlar va so'zlar sintaktik vazifasiga ko'ra umumiylikka ega. Frazeologizmlar lug'aviy birlik bo'lganidan, xuddi so'zlar kabi gapda bir bo'lak vazifasida keladi.

Masalan: But you know it's *Hobson's choice*. Hozir Hayotning *ko'ngliga qil sig'maydi.1*

Bu har ikkala gapdagi frazeologizmlar kesim vazifasida qo'llangan. Frazeologizmlarga ham, so'zlarga o'xshab, ko'p ma'nolilik va omonimlik xos. Frazeologizmlar va so'zlar o'rtasidagi o'xshashlik **izomorfizm** hodisasidir. Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, frazeologizm va so'zlar o'rtasidagi farqlar ham anchagina. Tilshunos olim A.V.Kunin bu ikki til birligi o'rtasidagi quyidagi farqlarni sanab o'tadi:

1. So'zlar va frazeologizmlar ham semantik, ham strukturaviy jihatdan farqlanadi.
2. Frazeologizmlar frazeologik ma'noga ega bo'lgan so'z birikmasidir.

Frazeologizmlar so'z birligi va gaplarning grammatik qolipi asosida yasaladi, so'zlar so'zlardan emas, balki morfema yoki negizdan tashkil topadi. So'zlar leksik ma'noga ega va so'zlarga leksik turg'unlik xos. So'zlar, ba'zi qo'shma so'zlardan tashqari, so'z birikmalarining grammatik qolipi asosida yasalmaydi. So'zlar frazeologizmlarga xos bo'lmagan prefiksial va affiksial soz' yasovchi qoliplar asosida yasaladi.

3. Frazeologizmlar frazeologik birliklar, so'zlar esa leksik birliklardir. Frazeologizmlar so'z birikmasi yoki gaplar kabi nutq jarayonida hosil bo'lmaydi, balki ular xuddi so'zlar kabi tilda tayyor holda mavjud bo'ladi. Demak, frazeologizmlar nutq hodisasi emas, balki til hodisasidir.

To kick the bucket, red tape yoki aravani quruq olib qochmoq, nog'orasiga o'ynamoq kabilar tildagi tayyor lug'aviy birliklardir. Ba'zi frazeologizmlar tuzilishi jihatdan gap shaklida ham bo'ladi va ular nutqda gapning bir bo'lagi vazifasida keladi [4,98].

Masalan: *Quling o'rgilsin, mehmonlarda uchrashib qolguncha salomat bo'ling. (O. E)* Erkin so'z birikmasi va frazeologizmlar o'rtasidagi farqlarga to'xtaladigan bo'lsak, shuni aytib o'tish kerakki, erkin so'z birikmasi tarkibiy qismlaridan birining yoki bir nechtasining o'zgarishiga yo'l qo'yadi. Ammo bunda boshqa elementlarning ma'nolari o'zgarmaydi. So'z birikmasidagi so'zlar ko'proq semantik mustaqillikka ega. Har qanday komponent boshqasining ma'nosiga ta'sir etmasdan almashinishi mumkin: *to cut bread, to cut cheese, to eat bread*. Frazeologizmlarda esa bunday holat sodir bo'lmaydi. Masalan, *red flower* birikmasini olsak, undagi *red* sifatini *yellow, white* sifatlariga almashtirish mumkin. Ammo bu almashinish so'z birikmasida nazarda tutilgan predmetga tegishlilik ma'nosini o'zgartirmaydi (biron bir rangdagi gul) Frazeologizm bo'lgan **“red tape”**da esa *red* sifatining o'zgartirilishi frazeologizmlar ma'nosining butunlay o'zgarishiga olib keladi. *A blue (black, white) tape – ko'k (qora, oq) tasma* ma'nosini bildiradi. Frazeologizmlar va erkin so'z bog'lanmalari o'rtasidagi farq juda katta. Shuni aytish mumkinki, frazeologizm leksik birlik hisoblanuvchisoz birikmasidan tamomila farqlanuvchi alohida til birligidir [5,239].

Frazeologik iboralar va ularning semantik-grammatik tuzilishi. Frazeologizmlar frazeologik ma'no va qo'shimcha ottenkalardan iborat bo'ladi. Belgi, harakat kabilar haqidagi frazeologizm ifodalaydigan

ma'lumot frazeologik ma'no deyiladi. Masalan: *Endi to'rtinchu rotani ham ratsiya bilan ta'min qilsak, oshiq olchi bo'lardi*. Bu yerda ekanizni eshitib, hech narsa ko'zimga ko'rinmadi, **uchib bora qolsam dedimi**. (O)[6,43-45] Birinchi misoldagi frazeologizm belgini, ikkinchisidagi esa harakatni bildiradi. Frazeologizmlar so'zlar kabi yaxlit bir ma'no ifodalasada, ammo frazeologik ma'no ko'p jihatdan leksik ma'nodan farqlanadi. Shu sababdan frazeologizmlar so'zlarga misol bo'lgan hollarda ham frazeologik ma'no bir-biriga teng bo'lmaydi. Frazeologik ma'noning hajmi leksik ma'noning hajmiga nisbatan keng, murakkab bo'ladi. Masalan: a hard nut to crack – a very difficult problem.¹ Boshida *yong'oq chaqmoq – o'ta darajada azoblanmoq*. Ko'rinib turibdiki, bu frazeologizmlar ma'nosida “very” “o'ta darajada” komponenti bor. Frazeologik ma'no yaxlit ma'no bo'ladi, frazeologizmlar tarkibidagi so'zlar mustaqil ma'noga ega bo'lmaydi. Shuning uchun ayrim frazeologizmlarning komponentlari o'zgarsa ham frazeologik ma'no saqlanadi: to stand to one's guns – to stick one's guns; bir pul – ikki pul – uch pul. Keltirilgan dalillar frazeologizmlar garchi yaxlit ma'no ifodalasada, lekin frazeologik ma'no bilan leksik ma'no tabiati bir xil emasligini ko'rsatadi. Frazeologizmlar semantik jihatdan so'zlardan farqli belgi-xususiyatlarga ega bo'lganligi uchun ham tilda paydo bo'lgan va yashab kelmoqda.

Iboralarning grammatik tabiati va ichki sintaktik qurilishi. Frazeologik birikmalarning ifoda plani sifatida kamida ikkita mustaqil so'z qatnashadi [7,12]. O'zaro bog'langan bu so'zlar mohiyatiga ko'ra birikmaga yoki gapga teng bo'ladi. Bunday birikma yoki gapdan yaxlitligicha anglashiladigan frazeologik ma'no uni sintaktik birlik deb emas, balki semantik birlik deb qarashga olib keladi. Shu sababli birikmaga yoki gapga tenglik haqida gapirganda iboraning ichki sintaktik qurilishi ko'zda tutiladi; ibora tarkibini sintaktik tahlil qilish nutq birligining tarkibini emas, balki til birligining tarkibini tahlil qilish bo'ladi.

Umuman, ibora tarkibida qatnashgan so'zlar orasidagi sintaktik bog'lanish o'z kuchini saqlaydi va faqat ichki bo'ladi. Masalan, *ko'ngli og'ridi* iborasi ichki semantik qurilish jihatdan gapga teng, ayni shu birikmaning *ko'nglini og'ritmoq* [8,90] variant esa birikmaga teng. Bunday sintaktik qayta qurilish bu fe'l iborada nisbat yasalishi munosabati bilan yuz beradi; o'timsiz fe'l bosh kelishikdagi ot bilan munosabatga kirgan bo'lsa, ortirma nisbat yasovchisini olib o'timli fe'lga aylangach, ot komponentining bosh kelishigi tushum kelishigiga almashadi. Ko'rinib turibdiki, bir komponentdagi grammatik o'zgarish ikkinchi komponentga ham shunga muqobil o'zgarishni talab qiladi, natijada gapga teng holat birikmaga teng holatga o'tadi. Bunday ikki xil sintaktik qurilish shaklida bo'la oluvchi iboralar anchagina:

ko'zi ko'r, qulog'i kar bo'ldi – ko'zini ko'r, qulog'ini kar qilmoq; ko'zini moshdek ochmoq – ko'zi moshdek ochildi kabi. Ortirma nisbat yasalishi doim sintaktik qurilishni o'zgartirib yubormaydi [9,65].

Masalan, ***ko'z oldiga kelmoq – ko'z oldiga keltirmoq*** iborasida nisbat yasalishi sintaktik qurilishni – birikmaga teng holatni o'zgartirmaydi, bu yasaliş tufayli ikkinchi variant o'timlilik kashf etadi. Bunday grammatik o'zgarishlar iboraning faqat ifoda planida ro'y berib, uning mazmun planiga ta'sir qilmaydi. Gapga tenglikdan birikmaga tenglikka va aksincha aylanish iboralarining ma'lum bir qismigagina xos bo'lib, qolgan iboralar doimo bir sintaktik qurilish shaklida namoyon bo'ladi [10,56].

Masalan: *ko'ziga cho'p solmoq, ko'zini bo'yamoq, ko'z o'ngida* kabi iboralar doim birikmaga teng qurilishli shaklda; *ko'zi yetdi, ko'zi ilindi, ko'zi ko'r – qulog'i kar* kabi iboralar doim gapga teng qurilishli shaklda ishlatiladi. Misollardan ko'rinadiki, ichki sintaktik qurilishli birikmaga teng iboralar ham, gapga teng iboralar ham yig'iq va yoyiq bo'ladi, odatdagi sintaktik bog'lanishlarda qanday bo'laklar qatnashsa, iboralar tarkibida ham xuddi shunday bo'laklar qatnashadi. Yirik frazeolog olim A.V. Kuninning fikricha, frazeologizmlar nominativ, stilistik, kumunikativ, pragmatik va xulosolovchi, yakunlovchi vazifalarni bajaradi [11,10-13]. Frazeologizmlarning nominativ funksiyasi. Professor Sh.Raxmatullayev iboralarni ma'no turlari jihatdan a)nomlovchi iboralar b) ifodolovchi iboralarga ajratib tasnif qiladi: Shulardan;

- nomlovchi iboralar deyilganda olim predmetga xos belgining nomi (*do'ppining tagidek*),
- harakat holatning nomi (*og'iz ko'pirtirmoq*),
- harakatga xos bo'lgan belgining nomi (*eshikdan kelmay teshikdan*)ni bildiruvchi iboralarni tushunadi.

Olingan natijalar va ularning tahlili: Bunday tasnif esa iboralarining ma'lum qismi matnlarda nominativ funksiya bajarishi mumkinligidan dalolat beradi.

Masalan: *belni bog'lamoq* iborasi oddiy harakatga shaylanmoq, o'tlanmoq ma'nosini ifodalashga xizmat qiladi: Biz chunon xizmatga belni bog'ladik, bormi himmat o'lhagich tarozilar.

Belni bog'lang-u jahonni to'ldiring qog'oz bilan.

Nutqni ixchamlash funksiyasi. Iboralarning ayrimlari ma'noni ixchamlashtirish (lakonizatsiyalash) xususiyati bilan ajralib turadi. Bunday holatni taniqli o'zbek shoiri Erkin Vohidov she'riyatida qo'llangan iboralarga doir olib borilgan kuzatishlar ham to'la tasdiqlaydi. Masalan, adabiy tilda “*ko'p gapirmoq*”, “*vaysaqalik qilmoq*” ma'nolarini ixcham tarzda “gap sotishga usta bo'lmoq” iborasi bilan ifodalanadi. “tosh otishga usta bo'lmoq” iborasi “*yomonlik, dushmanlik hatti-harakatlarini qilmoq*” ma'nosini anglatadi.

Obrazli ifodalash funksiyasi. Badiiy nutqda, ayniqsa, she'riyatda qo'shma iboralar konkret, ko'rgazmali tasvir uchun xizmat qiladi, shaxs, predmet, voqea-hodisaning obrazli ifodasi bo'lib keladi. Masalan, "tishini tishiga qo'ymoq" iborasi "Istanbul fojiasi" she'riy dramasidan olingan quyidagi parchada "toqat bilan chidamoq", "chidash bermoq" ma'nolarini obrazli tarzda ifodalashga xizmat qiladi:

Tasavvur qil qanday holga tushar xaloyiq

Tishni tishga qo'ydim.

Yig'in tamom bo'ldiyu, biz shiyponga borib yetdik.

Umuman, baho funksiyali iboralar badiiy matnlarda, jumladan Erkin Vohidov she'riyatida xarakterlovchi vositalardan biri sanaladi. Ular yordamida turli voqea-hodisalarga, predmetlarga bo'lgan lirik qahramon munosabati ifodalanadi, voqeaband she'rlarda, dostonlarda esa bir personaj ikkinchisini xarakterlaydi:

Biz ayollarning to'liqida oqib,

U kunlar haqida to'qiyimiz doston,

Ammo o'lganlarga she'r, dostonidan ne naf

*Ne foyda yig'lashdan **qalb dardin aytib** [12,96-99].*

Emotsional funksiya. O'zbek tilidagi ko'pgina iboralarining ekspressiv-emotsional bo'yoqdorligi ajralmas xususiyati sanaladi. Masalan, tilimizdagi "arpasini xom o'rmoq" iborasi "nima yomonlik qildi" ma'nosini ifodalaydi. Bu iboraning kuchli ohang bilan talaffuz qilinishiyoq undagi emotsionallikning kuchliligidan dalolat beradi.

Ekspressiv funksiya. Umuman ibora tarkibidagi fonetik, leksik va ayrim grammatik o'zgarishlar undagi ekspressivlik darajasining kuchayishiga olib keladi:

a) ibora tarkibidagi fonetik o'zgarish tufayli ekspressivlik darajasining kuchayishi: *tepa sochi tikka bo'ldi* – *tepa sochi tip-tikka bo'ldi*, *ko'ngli qora* – *ko'ngli qop-qora*, *ko'ngli toza* – *ko'ngli top-toza*.

b) grammatik o'zgarish tufayli: *nafasi ichiga tushib ketdi* – *nafaslari ichiga tushib ketdi*, *ko'zi qiymaydi* – *ko'zlari qiymaydi*.

c) leksik o'zgarish tufayli: *narvonga minmoq* – *ilm narvoniga minmoq*, *etagini tutmoq* – *ilhom etagini tutmoq*, *jilovini tutmoq* – *ish jilovini tutmoq*.

Frazeologizmlar tarkibidagi so'zlar boshqa oddiy birikmadagi so'zlarga shaklan o'xshab qolishi mumkin:

*Qodirqul mingboshining bunaqangi ishlarga **suyagi yo'q**. – Bu go'shtning **suyagi yo'q**.*

*Mirzakarimboyning **qo'li uzun**, bu ishlarni uddalaydi. – Basketbolchining **qo'li uzun** edi.*

Bunday hollarda frazeologik ma'no kontekstga qarab aniqlanadi. O'zbek frazeologizmlarining grammatik tabiati haqida so'z borganda, ularning ichki sintaktik qurilishi, paradigmatic shakllari, iboralarining sintaktik qurshovi va ularda variantlanish hodisalarini tahlil qilish kerak bo'ladi. Frazeologik iboralarga grammatik nuqtai nazardan qaraganda, bunday iboralarining bir xil so'zga teng kelib, nisbiy tugal fikrni bildiradi. Mana shu xususiyatlarga qarab, frazeologik iboralarni grammatik tomondan dastlab uchga bo'lish mumkin: [13,45].

1. So'zga teng kelgan frazeologik iboralar: *qo'li ochiq* (saxiy), *qo'li qattiq* (xasis), *qattiq qo'l* (talabchan), *ko'zi yo'lingda* (intizor), *ko'zi tushdi* (ko'rdi), *ko'z qorachig'i* (farzandi) kabilar.

2. So'z birikmasiga teng kelgan frazeologik iboralar: *ko'nglidagini ochib tashladi* (sirini aytdi), *o'zlarining aka eskilarini taka deb yurdi* (yalanib-yolvorib yurdi), *ko'zini shira bosgan* (muvaqqafiyatlardan esankiragan).

3. Gapga teng kelgan frazeologik iboralar: *kengashli to'y tarqamas* (har bir ish maslahat bilan bo'lsa yaxshi), *oyni etak bilan yopib bo'lmas* (ayb-nuqsonlarni yashirib bo'lmaydi), *qolgan ishga qor yog'ar* (har bir ish o'z vaqtida bo'lishi durust) [14,78].

So'zga teng kelgan frazeologik iboralarga morfologik jihatdan qaraganda, bunday iboralardan kelib chiqadigan ko'chma ma'no fe'l, sifat, ot va ravish so'z turkumlariga teng kelishi mumkin. Shunga ko'ra so'zga teng morfologik iboralarni morfologik tomondan asosan 4 ga bo'lish mumkin.

1. Fe'l frazeologik iboralar: *ko'zi yetdi* (biladi, tushunadi), *ichi kuydi* (qayg'urdi), *ko'ngil qo'ydi* (sevdi).

2. Sifat frazeologik iboralar: *terisi qalin* (be'am, beparvo), *oq ko'ngil* (vijdonli), *dunyoni suv bossa to'pig'iga chiqmaydi* (beparvo, beg'am).

3. Ot frazeologik iboralar: *ko'z qorachig'i* (farzand), *umr bahori* (yoshlik), *aql chirog'i* (ilm), *ko'z bo'yamachilik* (aldash) [15,78-88].

4. Ravish frazeologik iboralar: *bir yoqadan bosh chiqarib* (do'stona, birgalikda), *yeng shimarib* (astoyidil), *bosh ko'tarmay* (tinmay).

Frazeologik iboralar har qanday bo'lak bo'lib keladi:

a) ega vazifasida kelgan frazeologik ibora;

- b) kesim vazifasida kelgan frazeologik ibora;
- c) aniqlovchi vazifasida kelgan frazeologik ibora;
- d) to'ldiruvchi vazifasida kelgan frazeologik ibora;
- e) hol vazifasida kelgan frazeologik ibora [16,98].

Frazeologik iboralar tuzilishi jihatdan so'z birikmasi, sodda va qo'shma gap shakllarida keladi:

- 1. So'z birikmasi shaklidagi frazeologik ibora.
- 2. Sodda gap shaklidagi frazeologik ibora.
- 3. Qo'shma gap shaklidagi frazeologik ibora.

Ingliz tilida grammatik jihatdan tasniflangan iboralar.

Go the wrong end of the stick (misunderstand) – verb+object

Pull a fast one (trick, deceive smb) – verb+object

Poke your nose into (interfere) – verb+object

Be over the moon (extremely happy) – verb+prepositional phrase

Feel down in the dumps (depressed) – verb+prepositional phrase

Be in the red (have a negative bank balance) – verb+prepositional phrase [17,65].

Frazeologik iboralarning ifoda plani sifatida kamida ikkita mustaqil so'z qatnashadi. O'zaro sintaktik bog'langan bu so'zlar mohiyatga ko'ra birikmaga yoki gapga teng bo'ladi.1

Frazeologizm tarkibida qatnashgan so'zlar orasidagi sintaktik bog'lanish o'z kuchini saqlaydi, faqat ichki bo'ladi. Iboralarning paradigmatic shakllari (turlanishlari, tuslanishlari kabilar) dastavval ularning qaysi turkumga mansub ekanligi bilan belgilanadi. Iboralarning asosiy qismini fe'l frazeologik birliklar tashkil etadi. O'zbek tilidagi iboralarning leksik va grammatik shakllari mavjud. Leksik variantlar quyidagi turlarga bo'linadi:

- a) leksik almashtirish: og'ziga talqin solmoq – og'ziga so'k solmoq;
- b) leksik tanlash: daryodan bir tomchi – daryodan tomchi;
- c) leksik qo'shish: esini tanimoq – es-hushini tanimoq [18,58].

Bu variantlar orasida leksik almashtirish murakkab hisoblanadi. Leksik so'z qo'shish esa eng kam uchraydi. Grammatik variantlanish ham xuddi leksik variantlanish bo'lganidek asosan ibora tarkibidagi biror grammatik qismni almashtirish, tanlash yoki unga qo'shish voqe bo'ladi. Grammatik variantlanishda o'ziga xos hodisa – so'z komponentlarning joylashish tartibi asosida yuzaga keldigan variantlanish ham bor:

1. Almashtirish asosida paydo bo'ladigan variantlanish: o'tirgani joy topolmasli – o'tirishga joy topolmaslik.

2. Qo'shish asosida paydo bo'ladigan variantlanish: holdan toymoq – holdan toydirmoq.

3. Tashlash asosida paydo bo'ladigan variantlanish: ko'zi ilindi – ko'z ilindi.

4. Tartib o'zgartirish asosida paydo bo'ladigan variantlanish: bog'dan kelsa– bog'dan kelmoq [19,73].

Frazeologik qo'shilma va uning turlari. Frazeologik qo'shilma ko'pincha ikki so'zdan ba'zan undan ortiq so'zdan ham tarkib topadi. Frazeologik qo'shilma tarkibidagi bir yoki ikki so'z ko'chma ma'noda qo'llanadi, boshqasi o'z leksik ma'nosini saqlagan bo'ladi. Ko'chma ma'noni ifoda etgan element yolg'iz o'zi kelganda ko'chma ma'nolik xususiyatini yo'qotib, o'z asl ma'nosini bildiradi. Shuning uchun ham frazeologik qo'shilma tarkibidagi bir elementning ko'chma ma'no ifoda etishi uchun ikkinchi elementi o'sha ma'nosida kelgan so'z bo'lishi shart. Bundan ma'lum bo'ladiki, frazeologik qo'shilmadagi bir elementdan anglashiladigan ko'chma ma'no butun bog'lanmadagi so'zlarda bog'langan ma'nodan yuzaga keladi. Shunday qilib tarkibidagi so'zlardan biri yoki ikkitasidan ko'chma ma'noga asoslangan va bog'lanmadagi barcha so'zlardagi xos mustaqil ma'no markazlarini saqlab qolgan iboralar frazeologik qo'shilma deb aytiladi. Frazeologik qo'shilma tarkibidagi erkin element bu iboraning erkin so'zlar bog'lanmasi va sintaktik bog'lanmalarga o'xshashlik tomonini ko'rsatadi, ammo frazeologik qo'shilmalarni sintaktik bog'lanmadan farqlay bilish kerak. Bu farqni quyidagi misollar bilan ko'rish mumkin:

Achchiq choydan bo'lsin.

Bunday achchiq gaplardan endi biz ham benasib qolmadik [21,89-90].

Birinchi misoldagi *achchiq choy* iborasi sintaktik ibora bo'lib, har bir so'z leksik ma'nosida qo'llanmoqda, ikkinchi misoldagi *achchiq gap* iborasi frazeologik qo'shilma hisoblanadi, chunki bunda *gap* so'zi o'z ma'nosida, *achchiq* so'zi esa ko'chma ma'noda (koyituvchi, ranjituvchi ma'nolarida) ishlatilgan.

Xulosa. Frazeologizmlarni milliy tadqiq qilishda tilshunoslikda keng tarqalgan **distributiv metoddan** foydalanish mumkin. Frazeologizmlarning nutqda ishlatilish xususiyatlarining distributiv metod yordamida o'rganish orqali ularning struktural-semantik belgilari chuqurroq aniqlanadi. Undan tashqari, frazeologizmlarni o'rganishda ularning semantik-struktural belgilarini tilning mamun rejasi bilan uning ifoda rejasini munosabati borasida qaramoq zarur. Frazeologizmlarning tarkibini tekshirishda uning komponentlari o'rtasidagi birikish turlarini birikuvchi so'zlarning tabiatini **valentlik metodi** asosida qaramoq zarur [22,59].